



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 9-iyul, № 137 (8760)


Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## PARLAMENTLARARO ALOQALAR JADAL RIVOJLANIB BORAYOTGANI ALOHIDA MAMNUNIYAT BILAN QAYD ETILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 8-iyul kuni Butunxitoy xalq vakillari kengashi Doimiy qo'mitasi Raisi Chjao Leszi boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Xitoy parlamenti rahbari O'zbekiston yetakchisiga Xitoy Xalq Respublikasi Raisi

Si Szinpingning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi. Uchrashuvda so'nggi

yillarda O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi do'stlik va har tomonlama

strategik sheriklik munosabatlarida yuksak darajaga erishilgani katta

mamnuniyat bilan qayd etildi.

O'zbekiston Prezidentining joriy yil yanvar oyida Xitoyga davlat tashrifi chog'ida erishilgan kelishuvlar izchil amalga oshirilmog'ida.

Ostona shahridagi ShHT sammiti doirasida o'tgan oliy darajadagi samarali muzokaralar natijalari mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishga yangi sur'at bag'ishlashiga ishonch bildirildi.

Xitoy O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, ayniqsa, kambag'allikni qisqartirish dasturini, shuningdek, infratuzilmani rivojlantirish, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo'jaligi va "yashil" energetika sohasida strategik hamkorlik dasturlarini qabul qilish rejalarini qat'iy qo'llab-quvvatlayotgani tasdiqlandi.

Xitoy - Qirg'iziston - O'zbekiston temir yo'lini qurish bo'yicha amaliy ishlarni tez fursatda boshlash muhimligi qayd etildi.

Jadal hududlararo aloqalarga yuqori baho berildi. Kelgusi yilda ikkinchi

Hududlar forumi o'tkaziladi.

O'zbekistonda Xitoy oliy o'quv yurtlarining filiallarini ochish, professional ta'lim sohasidagi hamkorlikni kengaytirish, Konfutsiy instituti faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari ko'rib chiqildi. Kelgusi yilda ikkinchi Ta'lim forumini o'tkazish rejalashtirilgan.

Madaniyat va turizm sohasidagi almashinuv yuzasidan fikr almashildi.

Parlamentlararo hamkorlikni yanada kengaytirish, parlament a'zolari o'rtasidagi aloqalarni faollashtirish va amalga oshirilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonun ijodkorligi tajribasini o'rganish zarurli alohida ta'kidlandi.

Ikki mamlakat parlamentlari o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni qabul qilish nazarda tutilgani qayd etildi.

O'Z.A.  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

## NAVBATDAGI YALPI MAJLIS QACHON CHAQIRILISHI MA'LUM QILINDI

Kecha Oliy Majlis Senati Kengashining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Majlisni Senat Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Unda Senatning ellik to'rtinchi yalpi majlisini 2024-yil 10-iyul kuni chaqirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

### Senat Kengashida

Ta'kidlanganidek, videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda o'tkaziladigan yalpi majlisda bir qator masalalarni muhokama qilish nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida, "Aholi bandligi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish haqida qonunlar shular jumlasidandir.

Shuningdek, senatorlar tomonidan "Huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida qonun muhokama qilinadi.

Senatorlar tomonidan "Shaharsozlik faoliyati sohasidagi davlat boshqaruvi va aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimi takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida", "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuniga bo'xona brokeri faoliyatini

hamda xalqaro kuryerlik jo'natmalarini yetkazib berish bo'yicha faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan qo'shimchalar kiritish haqida qonunlar ham ko'rib chiqilishi rejalashtirilgan.

Kun tartibidan "Fitosanitariya talablari yengillashtirilishi munosabati bilan O'simliklar karantini to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida, "Ma'muriy islohotlar doirasida ta'lim sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" qonunlar ham o'rin olgan.

Qolaversa, "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi, Turkmaniston va Turkiya bilan tuzilgan bitimlarni ratifikatsiya qilish haqidagi qonunlar muhokama markazida bo'ladi.

Bundan tashqari, yalpi majlisda Toshkent shahrida tadbirkorlikni rivojlantirish va ekologik vaziyatni yaxshilash borasidagi ishlar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sifat tarkibini yaxshilash, o'simlik va hayvonot dunyosini asrash va kadastrini yuritish holati yuzasidan hukumatga yuborilgan parlament so'rovi natijalari hamda o'zini o'zi band qilish tartibida mehnat faoliyatini amalga oshirishning ayrim jihatlari yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga parlament so'rovi yuborish masalalari ko'rib chiqiladi.

"Xalq so'zi".

## O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik to'rtinchi yalpi majlisi ochilishi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik to'rtinchi yalpi majlisi 2024-yil 10-iyul kuni soat 10:00 da Toshkent shahrida Oliy Majlis Senatining majlislar zalida o'z ishini boshlaydi.

Yalpi majlisni videokonferensaloqa tarzida o'tkazish rejalashtirilgan. Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib boriladi.

### Uchrashuv

## YILLAR SINOVIDAN O'TGAN DO'STLIK

Xitoy Xalq Respublikasi Butunxitoy xalq vakillari kengashi Doimiy qo'mitasi Raisi Chjao Leszi boshchiligidagi delegatsiya yurtimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turibdi.

Mehmonlar dastlab Samarqandda bo'lib, ko'hna va boqiy shaharning qadimiy arxitekturasi, tarixiy obidalari va me'moriy manzaralari bilan yaqindan tanishdi.

Tashrifning asosiy tadbirlari bo'lib o'tadigan poytaxtimizda Butunxitoy xalq vakillari kengashi Doimiy qo'mitasi Raisi Chjao Leszi boshchiligidagi delegatsiya Senat Raisi Tanzila Norboyeva hamrohligida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi Konfutsiy nomidagi O'zbekiston - Xitoy institutiga tashrif buyurdi.

Mehmonlar mazkur ta'lim dargohining 20 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan "Konfutsiy institutlari va sivilizatsiyalararo o'zaro ta'lim" mavzuidagi xalqaro anjumaning ochilish marosimida qatnashdi.

Tadbirida Markaziy Osiyo mamlakatlari davlat va ta'lim muassasalari vakillari, shuningdek, xitoyshunoslik hamda xalqaro munosabatlar sohasidagi ekspert va olimlar ham ishtirok etdi.

Oliy Majlis Senati Raisi ta'kidlaganidek, ta'lim va fan, madaniy-gumanitar sohalarda ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga oid har bir qadam xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

O'z navbatida, Chjao Leszi Toshkentdagi Konfutsiy instituti dunyodagi birinchi tashkil etilgan ana shunday institutlardan biri ekanligini ta'kidlab, Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik o'zaro ishonchga asoslanganini qayd etib o'tdi. Bugun esa yillar sinovidan

o'tgan do'stona aloqalarimiz yanada mustahkamlanmog'ida.

Tadbir doirasida XXR delegatsiyasi Konfutsiy institutining so'nggi 20 yil davomida erishgan yutuqlariga bag'ishlangan ko'rgazma bilan tanishdi.

So'ngra Xitoy delegatsiyasi a'zolari Oliy Majlis Senati Raisi hamrohligida "Yangi O'zbekiston" bog'iga tashrif buyurib, Mustaqillik monumenti poyiga gul qo'ydi.

Delegatsiya rahbari Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barpo etilgan majmuaning arxitektura yechimlari va kompozitsiyasining o'ziga xos xususiyatlariga yuqori baho berdi.

Delegatsiya a'zolari 2025-yilda Osiyo va Paraosiy o'smirlar o'yinlari o'tkaziladigan poytaxtimizdagi Olimpiya shaharchasini ham ko'zdan kechirdi. Ayni jarayonda dunyoning 70 ta davlatida sport inshootlarini qurish bo'yicha katta tajribaga ega bo'lgan Xitoyning "SAMC Engineering" kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan Olimpiya shaharchasi qurilishi bilan tanishildi.

O'z navbatida, Butunxitoy xalq vakillari kengashi Doimiy qo'mitasi Raisi shaharchada amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami va sifatini yuqori baholab, bu davlat tomonidan sportni rivojlantirishga qaratilayotgan ulkan e'tibordan dalolat berishini hamda mazkur loyihalarning barchasi O'zbekiston hamda Xitoy o'rtasida yo'lga qo'yilgan har tomonlama va serqirra hamkorlik samarasi ekanligini urg'uladi.

"Xalq so'zi".

## O'zbekiston - Xitoy:

# STRATEGIK SHERIKLIK DARAJASIDAGI HAMKORLIK

Kecha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Isoilovning Xitoy Xalq Respublikasi Butunxitoy xalq vakillari kengashi Doimiy qo'mitasi Raisi Chjao Leszi boshchiligidagi delegatsiya a'zolari bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Muloqotda keyingi yillarda O'zbekiston va Xitoy o'rtasida ikki tomonlama aloqalarning barcha yo'nalishlarida o'zaro munosabatlar faollashib, mustahkamlanib borayotgani, mamlakatlarimiz mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan bir-birini qo'llab-quvvatlab kelayotgani alohida e'tirof etildi. Ayniqsa, ikki davlat rahbarlari Shavkat Mirziyoyev va Si Szinpingning qat'iy siyosiy irodasi, oliy darajadagi uchrashuvlar tufayli O'zbekiston - Xitoy hamkorlik munosabatlari keng ko'lamli ahamiyat kasb etib, strategik sheriklik darajasiga, turli sohalardagi munosabatlar yangi

bosqichga ko'tarildi. Uchrashuvda Xitoy parlamenti delegatsiyasi a'zolariga "O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarini ro'yobga chiqarish borasidagi sa'y-harakatlar hamda Qonunchilik palatasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

O'z navbatida, Chjao Leszi so'nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli izchil islohotlar davlat va jamiyat

hayotining barcha jabhasida ulkan natijalar berayotganini yuqori baholab, ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishda muhim omil bo'lgan parlamentlararo hamkorlikni yanada kengaytirish va sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish har tomonlama foydali ekanini qayd etdi.

Konstruktiv va do'stona ruhda o'tgan uchrashuvda parlamentlararo hamkorlik aloqalarini rivojlantirish istiqbollari, uni yangi mazmun bilan boyitish, qonun ijodkorligi sohasida o'zaro tajriba almashish masalalari muhokama qilindi. Shu bilan birga, oliy darajada erishilgan kelishuvlarning ijrosini ta'minlash borasida parlamentlar oldida turgan vazifalar ko'rib chiqilib, ustuvor vazifalar belgilab olindi.



## Ko'z o'ngimizdagi o'zgarishlar



# ISLOHOTLAR SHIDDATIDAN KUCH OLAYOTGAN FARG'ONALIKLAR

Vodiyning gavhari va marvardi atalmish azim Farg'ona tobora go'zallashib, yangilanib bormog'ida. Bunyodkorlik hamda yaratuvchanlikning kuch-qudrati va qut-barakasi viloyatning har bir shaharu tumanida, mahallay uzarida o'zini namoyon etyapti. Viloyatning ko'ru jamolini tubdan o'zgartirib yuborayotgan keng va yorug' ko'chalar, osmono'par bino-inshootlar bilan farg'onaliklar faxrlanmog'ida.

Prezidentimizning o'tgan yili 27-28-iyul kunlari Farg'ona viloyatiga amaliy tashrifi chog'ida yurt obodligi, xalqimiz farovonligi yo'lida qator ezgu tashabbuslar ilgari surilib, ustuvor vazifalar ijrosi bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan edi.

Xo'sh, o'tgan bir yil davomida farg'onaliklar hayotida qanday o'zgarishlar ro'y berdi?



## O'zaro munosabatlarimiz yangicha sur'atda davom ettiriladi

Oliy Majlis Senatida Butunxitoy xalq vakillari kengashi Doimiy qo'mitasi Raisi Chjao Leszi boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston va Xitoy davlatlari tarixiy munosabatlari qadimdan bugungacha izchil rivojlanib kelayotgani,

ayniqsa, ikki mamlakat yetakchilari sa'y-harakatlari, do'stona aloqalari va qat'iy siyosiy irodasi tufayli





# O'zaro munosabatlarning yangi sur'atda davom ettiriladi

Tomonlar ikki davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda parlamentlar o'rnini yuksak ekanligini va shundan kelib chiqib uni amaliy mazmun bilan boyitish lozimligini ta'kidlaydi. Bunda qonun chiqaruvchi organlar do'stlik guruhlari faoliyatini kuchaytirish, o'zaro tashriflarni ko'paytirish hamda qo'mitalar o'rtasida yaqin munosabatlarni yo'lga

qo'yish, shuningdek, qonun ijodkorligi va parlament nazorati yo'nalishlarida tajriba almashish muhimligi qayd qilindi. Muzokaralar chog'ida O'zbekiston viloyatlari va Xitoy provinsiyalari mahalliy Kengashlari o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish, hududiy hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha bildirilgan takliflar mehmonlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Ya'ni

parlamentlararo hamkorlik yangi sur'atda davom ettirilishiga ishonch bildirildi. O'zbekiston va Xitoy hududlari o'rtasida nafaqat savdo-iqtisodiy, balki madaniy-gumanitar, ilm-fan, ta'lim yo'nalishlarida ham hamkorlikni yanada chuqurlashtirish lozimligi alohida ta'kidlandi. Uchrashuv yakunida ikki tomonlama munosabatlarni huquqiy

jihatdan mustahkamlash, xalqaro parlament tuzilmalari doirasida hamkorlikni rivojlantirish hamda o'zaro tashabbuslarini doimiy qo'llab-quvvatlashga kelishib olindi. Butunxitoy xalq vakillari kengashi Doimiy qo'mitasi Raisi Chjao Leszi Oliy Majlis Senatining Faxriy mehmonlar kitobida dastxat yozib qoldirdi. "Xalq so'zi".

O'zbekiston – Xitoy:

## STRATEGIK SHERIKLIK DARAJASIDAGI HAMKORLIK

Muloqot davomida mamlakatlarda o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamkorlik, transport-kommunikatsiya, ta'lim, turizm,

qayta tiklanuvchi energiya manbalari, kambag'allikka qarshi kurashish va boshqa sohalaridagi aloqalar ko'lamini yanada kengaytirish masalalari xususida ham so'z yuritildi.

Samimiy va do'stona ruhda o'tgan uchrashuvda tomonlar parlamentlararo aloqalarni yanada rivojlantirish va mustahkamlashga kelishib oldi.

### So'z – ishtirokchilarga

**Dilorom FAYZIYEVA,** Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi raisi:

– O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szpin o'rtasidagi ishonchli va samimiy munosabatlar ikki tomonlama ko'p qirrali hamkorlikni, shu jumladan, parlamentlararo aloqalarni jadal rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Xitoy Xalq Respublikasi Butunxitoy xalq vakillari kengashi Doimiy qo'mitasi Raisi boshchiligidagi delegatsiya bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda mazkur masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, Chjao Leszi ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi ishonchli munosabatlar muhimligi, shuningdek, mamlakatlarning mavjud iqtisodiy salohiyatiga oid masalalarga e'tibor qaratib, Xitoy o'zaro savdo aloqalarini yanada kengaytirishda hamkorlik qilishga tayyorligini ta'kidladi. Shuningdek, "yashil" energetikani rivojlantirish, atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish, uran rudalari, mineral resurslarni ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarini taraqqiy ettirish bo'yicha aloqalarni mustahkamlash, bunda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish muhim vazifalardan ekanini alohida qayd etildi.

O'zbekiston – Xitoy parlamentlararo hamkorligiga xizmat qiladigan mazkur uchrashuv oliy vakillik organlarining tegishli qo'mitalari, komissiyalari, yordamchi tuzilmalari o'rtasida ilmiy-tadqiqot markazlari va ekspert doiralari jalb etgan holda qonun ijodkorligi faoliyati bo'yicha tajriba almashishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Ilhom ABDULLAYEV,** Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Innovatsion rivojlantirish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi raisi:

– Ikki davlat o'liy vakillik organlari tomonidan kelgusidagi hamkorlik rejalarining ishlab chiqilgan uchrashuvning eng muhim natijasi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Siyosiy partiyalar, qo'mitalar va parlament fraksiyalari darajasida amaliy hamkorlik masalalari bo'yicha muhim kelishuvlarga erishildi.

Ikki tomonlama hamkorlik orqali ham, turli xalqaro tashkilotlarga a'zolik formatlarida

ham parlamentlar o'rtasidagi sheriklikni yanada mustahkamlashdan o'zaro manfaatdor ekanimiz o'z tasdiqini topdi.

Xitoy delegatsiyasi a'zolari O'zbekistondagi deputatlik korpusi faoliyatining o'ziga xos jihatlari bilan atroflicha tanishdi. Deputatlarning saylov okruglaridagi ishlari, joylardagi holatni bevosita o'rganishi, saylovchilar bilan aloqalari katta qiziqish bilan qabul qilindi va qo'llab-quvvatlandi.

Parlament faoliyatining ochiqligi va hisobdorligining samarali mexanizmlari istiqbolli yo'nalish sifatida e'tirof etildi.

Xitoy tomoni O'zbekiston parlamentida raqamlashtirish tizimlarini joriy etish va rivojlantirish jarayonlari amaliyoti bilan tanishishga e'tibor qaratdi. Ayni chog'da XXR delegatsiyasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining parlament faoliyati jarayonlarini raqamlashtirish darajasini yuqori baholadi.

**Kamol JUMANIYOZOV,** Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

– Aytish joizki, quyi palataga Xitoy parlamenti a'zolarining navbatdagi tashrifi ikki tomonlama munosabatlarimizning ahamiyati nechog'li muhimligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda Xitoy O'zbekistonning strategik sheriklaridan biri va eng asosiy savdo-iqtisodiy hamkori sanaladi. Ayniqsa, oxirgi yillarda "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida Xitoy tomonidan olib borilayotgan sa'y-harakatlar O'zbekiston islohotlari bilan hamohangligi hamda keyingi yillarda ikki mamlakat o'rtasidagi do'stlik aloqalari, mintaqadagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi ezuq maqsadlari e'tiborga molikdir.

Oliy Majlis va Butunxitoy xalq vakillari kengashi o'rtasida hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruh a'zosi sifatida aytishim mumkin, bunday uchrashuvlar xalqimiz o'rtasida ishonch, tajriba almashish va o'zaro hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Qolaversa, ikki davlat taraqqiyotiga hissa qo'shadigan yangi qo'shma loyiha va tashabbuslar uchun boshlanish nuqtasi bo'ladi.

Ishonchim komilki, hamkorligimiz yanada rivojlanadi hamda xalqlarimizning umumiy maqsad va manfaatlariga erishish yo'lida birgalikda harakat qilishda davom etamiz.

"Xalq so'zi".

## XALQ VAKILI DOIM FAOL VA TASHABBUSKOR BO'LMOG'I ZARUR

O'zbekiston milliy rivojlanishning yangi davriga qadam qo'ydi. Barcha jabhada islohotlar, o'zgarishlar kuzatilmoqda. Davlatimiz rahbarining oqilona siyosati bugun ko'p millionli xalqimiz hayotida o'z natijasini ko'rsatib, yaratib berilayotgan shart-sharoitlar odamlarni rozi qilish, tinch va farovon turmush kechirishga xizmat qilayapti. Keng ko'lamli va samarali islohotlar ko'z o'ngimizda jadalik bilan davom etayotir.

### Mulohaza

Albatta, ana shu jarayonlarda mahalliy vakillik organlarining o'rnini katta. Shu bois keyingi yillarda yurimizda mahalliy Kengashlarning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilishga oid dolzarb masalalarga yechim topish bo'yicha vakolatlari kengaytirildi hamda xalq hokimiyatligi ishini samarali tashkil etish borasida ko'plab chora-tadbirlar ro'yogga chiqarildi.

Muhimi, mamlakatimizda qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasidagi maqsadlarni amalga oshirishda ularning rolini kengaytirish va mahalliy vakillik organlarini xalqning chinakam "ovozi"ga aylantirish, hududiy boshqaruvni "aholi manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida tashkil etish vazifasi belgilandi. Bu, o'z navbatida, joylarda islohotlarni olib borishda mahalliy Kengashlarning ijro hokimiyati organlari bilan hamkorlikda ishlarini taqozo qilaypti.

Bugun oldimizda zalvarli vazifalar turibdi. Ular ro'yobida mahalliy Kengashlar vakillari islohotlarning oddiy

kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi va targ'ibotchisi bo'lishi kerak. Buni birinchi darajali vazifa deb bilib qattiq ishlash, xalqimizga siddiqidan xizmat qilishni shiddatli davrning o'zi talab etayotgani ham bor gap. Bunda, albatta, katta hayot tajribasiga ega, o'z zimmasiga katta mas'uliyat va majburiyatlarni olgan, buni o'zlar uchun ustuvor vazifa deb bilgan xalq vakillari fidoyilik, tashabbuskorlik va talabchanlik namunasini ko'rsatishlari kerak bo'ladi.

Ayni chog'da bu Prezidentimizning: "Albatta, hayotimizdagi bunday ulkan miqyosdagi iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy-huquqiy islohotlarni amalga oshirishda milliy parlamentimiz – Oliy Majlis va uning yuqori palatasi bo'lmish Senatning, siz, hurmatli senatorlarimizning faoliyati o'goyat muhim ahamiyatga ega ekanini hamamiz yaxshi bilamiz", degan e'tirofiga ham mos keladi. Zero, xalqimiz bu borada bizga juda katta ishonch bildirgan va bizdan aniq natijalarni kutmoqda.

Yangi O'zbekistonga

poydevor qo'yilayotgan bugungi davrda xalqimizning hayot darajasi va turmush sifatini yanada yaxshilash, insonlarni rozi qilish, farovon hayot kechirishi uchun zaruriy sharoit yaratish juda muhim. Shu ma'noda, mahalliy Kengashlar deputatlari hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda va joylarda aholi muammolarini hal etishda tashabbus ko'rsatishi barobarida, muammolar yechimini qabul qilinadigan qarorlarda aks ettirib, ularning ijrosi ustidan deputatlik nazoratini faol olib borsin, nurlandi. Demak, ushbu vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'zaro hamkorlik, hayot tajribasiga ega, o'z zimmasiga katta mas'uliyat va majburiyatlarni olgan, buni o'zlar uchun ustuvor vazifa deb bilgan xalq vakillari fidoyilik, tashabbuskorlik va talabchanlik namunasini ko'rsatishlari kerak bo'ladi.

Shundan kelib chiqib joylardagi hududiy vakillik organlari bilan hamkorlik qilib kelyapmiz, albatta. Bu ishlar xalq bilan doimiy va tizimli muloqot asosida olib borilayotgani muammolarni aniqlash hamda ularni samarali hal etish imkonini bermoqda. Qolaversa, xalq bilan muloqotlarda bugungi kun siyosati mazmun-mohiyati va islohotlarning borishi,

yurtimiz taraqqiyotining keyingi bosqichidagi rejalar aholi vakillariga yetkazilayotir. Xususan, senatorlardan iborat ishchi guruhlar muntazam hududlarga safarbar qilinayotgani, ular mavjud vaziyatni chuqur o'rganib, ko'p hollarda muammolarni joyida hal etayotgani yoki o'rganish natijalari xalq deputatlari mahalliy Kengashlari sessiyalari, yig'ilishlarida muhokama qilinib, qator masalalarga parlament nazorati ostida yechim topilayotgani e'tiborga molik.

Ya'qinda Oliy Majlis Senati Raisi T. Norboyeva boshchiligidagi ishchi guruh Navoiy viloyatida bo'lib, shahar va tumanlar hamda sohalar bo'yicha, shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarida o'rganishlar olib borgan, muammolarni hal etishga amaliy ko'mak berganini bunga yaqqol misol sifatida keltirish mumkin. Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi Raisi E. Gadoyev boshchiligidagi ishchi guruh tomonidan esa joriy yilning yanvar – may oylarida qabul qilingan hujjatlar ijrosi o'rganib chiqildi.

Shu jarayonda viloyat hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy

Umuman, tegishli ishchi guruhlar hamda senatorlarning hududlarga safarlari, ularning real hayotga guvoh bo'layotgani mahalliy Kengashlar faoliyatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni chog'da bu ijro hokimiyati bilan hamjihatlikni mustahkamlash va joylardagi muammolarni tizimli hal qilishda qo'l kelmoqda.

Quvondiq SANAQULOV, Oliy Majlis Senati a'zosi.

## Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

# Shaffoflik va ochiqlik bor joyda qonuniylik kafolatlanadi

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan bir qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi. Deputatlar muhokamada masalalarning hayotiy zaruratiga alohida e'tibor qaratib, ularni takomillashtirishga oid muhim taklif va tavsiyalarni ilgari surdi.

### Davlat nazorati kuchaytiriladi

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab o'tgan haftada mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi

tejavsh va energiya samaradorligini nazorat etuvchi tashkilotlarning vakolatlari aniq qilib belgilanyapti.

Fraksiya a'zosi Zafar Xudoyberdiyev qonun loyihasining dolzarbligiga e'tibor qaratib, bir qator moddalarga tahriy tuzatish kiritish bo'yicha o'z takliflarini berdi. Shuningdek, energiya resurslari va undan foydalanishni nazarda tutuvchi ayrim normalarni yanada takomillashtirish yuzasidan tavsiyalarni bildirildi.

Deputatlar nazarida ta'kidlashicha, qonun loyihasi energiya resurslari xarajatlarini yanada maqbullashtirish, iste'mol samaradorligini ta'minlash, bu borada davlat nazoratini kuchaytirish, ma'muriy jarimalar va iqtisodiy sanksiyalarni qo'llash tartibini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

### "Aholi manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili – amalda

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mahalliy davlat hokimiyatining konstitutsiyaviy asoslari takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi. Quyi palataning bir qator deputatlari tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi

asosida ishlab chiqilgan qonun loyihasida mahalliy Kengashlarga deputatlar orasidan saylanadigan rais boshchilik qilishi, u jamoatchilik asosida faoliyat yuritishi, muddatidan oldin lavozimidan ozod qilinishi mumkinligi belgilanyapti.

Hokimlar nomzodi Kengashlarda ko'rib chiqilayotganda ular hududni rivojlantirish dasturini mahalliy Kengashlarga taqdim etishi nazarda tutilmoqda. Shuningdek, hokimlarning mahalliy Kengash deputatlari orasidan tayinlanishi va tasdiqlanishi haqidagi talab bekori qilinib, ularning deputat etib saylanishi mumkinligi aks etyapti.

Fraksiya a'zolarining fikricha, qonun loyihasining qabul qilinishi qonunchilikni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirish, joylarda hokimiyatlar bo'linishi prinsipini to'laqonli ro'yogga chiqarish va hududiy boshqaruvni "aholi manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Qizg'in muhokamadan so'ng qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

### Jamoatchilik oldidagi hisobdorlik mas'uliyati

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida mahalliy davlat hokimiyatining konstitutsiyaviy asoslari takomillashtirilganligi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, ushbu qonun loyihasi bilan yangi tahrirdagi Konstitutsiyadagi normalardan kelib chiqib, hokim va Kengash raisi lavozimlari ajratilmoqda.

Loyiha bilan kiritilayotgan o'zgartirishga ko'ra mahalliy Kengashlarga avvalgidek hokim emas, balki deputatlar orasidan saylanadigan rais boshchilik qiladi. Shuningdek, hokimlar nomzodi Kengashlarda ko'rib chiqilayotganda ular hududni rivojlantirish dasturini mahalliy Kengashlarga taqdim etishi tartibi joriy

etilmog'da. Mahalliy Kengashlarga hududlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qoida tariqasida 5 taqacha (amalda 8 ta) doimiy komissiya tuzish huquqi belgilanmoqda.

Deputatlarining fikriga ko'ra qonun loyihasidagi eng muhim yangilik bundan buyon mahalliy Kengash va hokim qabul qiladigan hujjatlar Yagona elektron tizimda (e-qonun.gov.uz) ro'yxatdan o'tkazilishi va tizimga joylashtirilishi shart bo'lishi bilan bog'liq.

Fraksiya a'zosi Inomjon Qudratovning qayd etishicha, ushbu tizimda ro'yxatdan o'tkazilmagan hujjatlar haqiqiy emas, deb hisoblanadigan bo'ladi. Bu nima degani? Demak, mahalliy hokimlik ham, mahalliy vakillik organi ham qabul qilinayotgan qarorlarning sifati va samaradorligiga, xolisligi va adolatlilik ekaniga yanada jiddiy e'tibor qaratishga majbur bo'ladi. Shaffoflik va ochiqlik bor joyda noqonuniy qarorlar qabul qilinmaydi, jamoatchilik oldidagi hisobdorlik mas'uliyati kuchli bo'ladi.

Yig'ilishda qonun loyihasi yuzasidan partiya pozitsiyasi shakllantirildi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

### Xavfsiz va barqaror elektr ta'minoti tizimi yaratiladi

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida bir qator qonun loyihalari bilan birga, "Elektr energetika va to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasi bilan elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash, saqlash, ta'minlash, markaziy xaridorning funksiyalarini bajarish, elektr energiyasi savdosi, importi va eksporti litsenziya asosida amalga oshirilishi belgilanmoqda.

Shuningdek, energetika bozori ishtirokchilarining maqomi, huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi aks etyapti. Bundan tashqari, elektr energiyasi bozorini tashkil etishga oid qoidalar,

elektr energetikasi sohasida shaffof tariflarni shaffof tamoyillar asosida shakllantirish tartiblari nazarda tutilmoqda.

Fraksiya a'zolari muhokama davomida qonun loyihasini qo'llab-quvvatlashini ma'lum qilar ekan, kiritilayotgan yangi normalar sanoatni rivojlantirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishonchli, xavfsiz hamda barqaror elektr ta'minoti tizimini yaratishga xizmat qilishini qayd etdi. Qonun loyihasi yuzasidan fikr-mulohazalar almashinib, deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Yig'ilishda, shuningdek, Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri H. Umarovning "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish holati to'g'risida"gi Qonunchilik palatasining parlament so'roviga yuborgan javobi ham atroflicha ko'rib chiqildi. Kun tartibidagi masala yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

### Kichik ishlab chiqaruvchilar uchun muhim yangilik

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama markazida bo'ldi.

Ma'lum qilinganidek, mazkur qonun loyihasi qishloq xo'jaligi kooperativini tashkil etish, kooperativga a'zolik, uning faoliyatini amalga oshirish, nazorat qilish, boshqarish, qayta tashkil etish va tugatish sohasidagi hamda mulkiy munosabatlarni tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan.

Loyihada belgilanayotgan normalar kichik ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, ular faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat tomonidan shart-



muhim voqealarga to'xtalib o'tildi. Ularning ahamiyatidan kelib chiqib, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Shundan so'ng fraksiya a'zolari energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasini ko'rib chiqdi.

Mazkur qonun loyihasida energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirishning asosiy tamoyillari hamda maqsadlari nazarda tutilmoqda. Bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, Vazirlar Mahkamas, maxsus vakolatli organ hamda energiyani

sharoitlar yaratish, moliylashtirish bo'yicha rag'batlantiruvchi chora-tadbirlarni qo'llash masalalarini ko'zda tutadi.

Binobarin, ushbu hujjatda qishloq xo'jaligi kooperativi o'z faoliyatida xalqaro umume'tirof etilgan kooperativ tamoyillarga asoslanishi, shuningdek, qishloq xo'jaligi kooperativi jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy ravishda birlashtirib, egalik qiladigan va demokratik yo'l bilan boshqariladigan, a'zolarining moddiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun pay usuliga asoslangan qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi mustaqil va tijorat tashkiloti ekanligi belgilanmoqda.

Fraksiya a'zosi Ravshanbek Begmatov ushbu qonun loyihasi partiya saylovoldi dasturiga hamohang ekanligini qayd etib, qonun loyihasining qabul qilinishi qishloq xo'jaligida zamonaviy kooperativ munosabatlarni tartibga solish, ularning huquqiy kafolatini yaratish, bozor mexanizmlarini joriy etish, erkin raqobat muhitini shakllantirish, mavjud tabiiy resurslardan to'g'ri foydalanishga xizmat qilishini bildirdi.

Muhokama davomida fraksiya a'zolari tomonidan qonun loyihasini takomillashtirish yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar berilib, konseptual jihatdan qo'llab-quvvatlandi.

"Xalq so'zi".

## 11-iyul kuni Yaponiya poytaxtida "O'zbekiston – Yaponiya ekspert muloqoti: yangi sharoitda strategik hamkorlik" mavzuida konferensiya bo'lib o'tadi.



## ITB O'zbekistondagi faoliyatini kengaytiradi

O'zbekistonning Saudiya Arabistonidagi elchisi Nodirjon Turg'unov Islom taraqqiyot banki (ITB)ning Loyihalashtirish masalalari departamenti bosh direktori Anas Aysam bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda O'zbekiston va ITB o'rtasida hamkorlik aloqalarini yanada jadallashtirish, mamlakatimizda ishlab chiqilayotgan yirik loyihalarni imtiyozli moliyalashtirish, xotiniqizlar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda texnik-gumanitar yordamlarni jalb qilish masalalari muhokama markazida bo'ldi.

Anas Aysam O'zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi amalga oshirilayotgan jadal ishlohtlar o'zining samarasini berayotgani va bu mamlakatning xalqaro maydondagi o'rni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etayotganini e'tirof qildi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston va ITB hamkorligi bo'yicha 2018 - 2022-yillarga mo'ljallangan strategiya muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Shu bois 2022 - 2026-yillar uchun ana shunday strategiya ishlab chiqilgan.

## Eksportning ham o'z talablari bor

O'zbekiston Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, O'zbekiston texnik reglament agentligi Germaniya fizika-texnik instituti (RTV) va Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati - GIZ bilan birgalikda Yevropa Ittifoqiga to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilish talablariga bag'ishlangan seminar o'tkazdi.

"Markaziy Osiyoda savdoni osonlashtirish" mintaqaviy loyihasi doirasida tashkil etilgan tadbirda davlat tashkilotlari va to'qimachilik sanoati xususiy kompaniyalaridan 70 dan ziyod vakillar qatnashdi.

Yevropa Ittifoqining umumiy preferensiyalar tizimi (GSP+) rivojlanayotgan mamlakatlarda eksportni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, GSP+ maqomi Yevropaga 6 mingdan ortiq turdagi tovarlarni bojtsiz eksport qilish imkoniyatini beradi. Bu imtiyoz faqat dunyoda sakkizta davlatga, jumladan, 2021-yil 10-apreldan boshlab O'zbekistonga ham taalluqli. Ayni imtiyozlarga qaramay hozirgi kunda O'zbekiston o'zining umumiy to'qimachilik mahsulotlarining faqat 7 foizini Yevropa Ittifoqiga eksport qilmoqda.

## Kutubxonalarini boshqarishda xorij tajribasi

Mamlakatimizning Londondagi elchixonasi ko'magida O'zbekiston Milliy kutubxonasi va Britaniya kutubxonasi vakillari o'rtasida videokonferensaloqa shaklida uchrashuv tashkil etildi.

Unda O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori Umida Teshaboyeva va Britaniya kutubxonasining Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo kolleksiyalar rahbari Maykl Erdman qatnashdi.

Onlayn muloqot chog'ida qonunchilik doirasida axborot resurslari almashtirish yo'lga qo'yish, elektron kataloglar va resurslardan ochiq foydalanish imkoniyatlarini taqdim etish, qo'lyozma va nodir nashrlarning restavratsiyasi sohasida qo'shma tadbirlar (seminar, o'quv va mahorat darslari hamda amaliy mashg'ulotlar) uyushtirish va hamkorlikning boshqa yo'nalishlari muhokama qilindi.

Uchrashuvda, shuningdek, Britaniya kutubxonasi ko'magida O'zbekiston kutubxonalarini samarali boshqarish va doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish istiqbollari xususida ham fikr almashildi.



## Yuqori quvvatdagi transformator aholi xizmatida

Xorazm viloyatiga quvvati 40 000 kVA bo'lgan ikkita yangi transformator olib kelindi.

Bunday yuqori quvvatdagi transformator ilk marta Shovot tumanida joylashgan "Shovot" nimstansiyasiga o'rnatildi. Modernizatsiya jarayonida 12 ming aholi xonadoni va mingga yaqin ulgurji iste'molchilarning energiya ta'minoti yaxshilandi.

Bundan tashqari, Qo'shko'pir tumanida joylashgan "Qo'shko'pir" nimstansiyadagi mavjud 10 000 kVA quvvatli transformator 25 000 kVA'ligiga almashtirildi. Natijada 20 mingdan ortiq xonadon va 1,5 mingga yaqin kichik, o'rta va yirik ishlab chiqarish obyektlarining elektr energiyasi ta'minoti yaxshilandi.

"Xalq so'zi".



## ISLOHOTLAR SHIDDATIDAN KUCH OLAYOTGAN FARG'ONALIKLAR

## Oltiariqning oltinrang uzumlari

Shohimardonsoy viloyatning o'nlab qadimiy qishloqlaridan oqib o'tib, Qapchug'ayga kelganida oltita ariqqa bo'linadi. Ushbu ariqlardan yilning to'rt faslida ham Oltiariq tumani mirishkorlariga tirlik ne'matini baxsh etuvchi obihayot oqadi. Aynan davlat rahbari tashabbusi bilan keyingi yillarda ushbu adirlar bag'rida chinakam mo'jiza - uzum va mevali bog'lar yaratildi.

Davlatimiz rahbari o'tgan yili viloyatga tashrifini Oltiariq tumanidan boshlab, Qapchug'ay adirlarida 1 ming gektar yerda tashkil etilgan uzum va meva bog'larini bilan tanishgan, oltiariqlik mirishkor uzumchilar bilan suhbatlashgan edi.

"Yangi O'zbekiston uzum bog'i"da dasht yerlar o'zlashtirilib, davlat byudjeti mablag'larini hisobidan yo'l, elektr bilan ta'minlandi. Suv tarmog'i tortildi, tomchilatib sug'orish texnologiyalari joriy etilib, yil davomida zaxira qilish uchun maxsus suv hovuzi qurildi. Har bir oilaga o'rtacha 20 - 25 sotixdan yer ajratib berilib, mahalliy iqlim sharoitiga moslab ekilgan o'nlab navli uzum ko'chatlari bugun hosilga kirdi.

Sirojiddin Es onaliyev Qapchug'ayda 50 sotix uzum bog'i olgan. Bu yil qator oraliqda intensiv usulda qovun yetishtirib, yaxshi daromad qildi. Uzum chetlariga Turkiyadan olib kelingan 300 tup eksportbog' o'rik navidan ekkandi. Intensiv o'rik navi ikkinchi yili 400 kilogrammdan ortiq hosil berdi.

Abdulfayoz Olimov oilasi uzum ko'chatlari oraliqda erakti qovun yetishtirib, ichki bozorga chiqarmoqda. Oila sohibining ta'kidlashicha, ikki o'g'li va ikki kelini bu yerda doimiy ish bilan band. Muhimi, dehqonchilik yumushlari tufayli oilaga fayz, baraka kirdi.



Ta'kidlash joizki, bugungi kunda Oltiariq tumanining 72 ta mahalla fuqarolar yig'inidagi 40 ming 500 xonadonda qariyb 230 ming nafar aholi istiqomat qiladi. Aholi tomorqasi, fermer va dehqon xo'jaliklari tasarrufida 4,5 ming gektar uzum bog'i mavjud. Shuningdek, 70 ming tonna sig'imga ega 85 ta mevasabzavot saqlashga ixtisoslashtirilgan muzlatkichi omborxonalar bor. 67 ta eksportchi korxonalar, 30 dan ortiq logistika markazlari hamda bitta mevasabzavot sotishga mo'ljallangan ulgurji bozor tashkil etilgan.

O'tgan yili 114,4 million dollarlik mahsulot chetga chiqarilib, bu borada tumanning viloyat miqyosidagi ulushi 17 foizga yetdi. Asosiy drayver sifatida 42,5 ming tonna uzum sotildi. Eksport geografiasini MDHdan tashqari, Eron, Indoneziya, BAA, AQSH singari davlatlar hisobiga kengaytdi.

Bu yilgi maqsad yanada ulkan - oltiariqlik Yevropa bozorlarini zabt etmoqchi! Oltiariq tumani hokimligi delegatsiyasi yaqinda Polshada bo'lib, qator istiqbolli kelishuvlarga

## 53 ta mahalla kambag'allikdan xoli bo'ladi

Davlat rahbarining viloyat faollari bilan yuzma-yuz muloqotda Farg'onani ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududga aylantirish taklifi bildirilgan edi. Amaliy sa'y-harakatlar samarasi o'loraq, shu kunlarda viloyatning 53 ta mahallasi kambag'allikdan xalos bo'lish arafasida.

Xo'sh, bunga qanday erishilmoqda? "Mahalla yetiligi" sa'y-harakati bilan joriy yilning besh oyida viloyatda 179 ming nafar aholi bandligi ta'minlandi. Shu tariqa 68 ming nafar ishsiz doimiy mehnatga jalb etildi. Ularning 85 ming nafari o'zini o'zi band qilganlar toifasiga kiritildi. 7 ming nafari yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ish boshladi hamda 17 ming nafar ishsiz aholiga ijara asosida yer ajratib berildi.

Bevosita mahalladagi hokim yordamchisi tavsiyasiga ko'ra, shu yilning yanvar - may oylarida 10 mingdan ziyod odamlarga 180,8 mlrd. so'm imtiyozli bank krediti ajratildi. Shuningdek, mahallada yashovchi 2 ming 350 nafar aholi vakillari subsidiya asosida 12,3 mlrd. so'mlik mehnat qurollari, asbob-uskunalar bilan ta'minlandi.

"Suxrtepa" mahalla fuqarolar yig'inida ishsizlikni bartaraf etish yo'lida astoydil ish olib borilmoqda.

Bundan ikki yil oldin mahallada, bor-yo'g'i, 18 ta tadbirkor bor edi. Bugun ularning soni 250 dan oshdi, - deydi tuman hokimining "Suxrtepa" MFYdagi yordamchisi Ra'noxon Hojibolayeva. - "Mahalla yetiligi" tomonidan o'rganish ishlari jarayonida

## Ekoshahar: orzular ijobati

Bugun Farg'ona shahrining o'ziga xos yangi timsoli yaratilib, unda bir paytning o'zida sharqona latofat, zamonaviy shaharsozlik va landschaft arxitekturasi an'analari o'zaro uyg'unlashtirilmoqda. Natijada ko'hna kent tobora muhtashamlik va ulug'vorlik kasb etib borayotir.

Ayni kunlarda Farg'ona shahrining yaqin yillargacha yayrab bir g'iyoh ummagan, tosh-shag'aldan iborat dasht hududida boshlangan Ekoshahar qurilishining birinchi bosqichi yakuniy pallaga kirdi. Bundan ikki-uch yil avval shu yerda zamonaviy shahar quriladi, degan g'apga ko'pchilik ishonmagan edi. O'tgan qisqa davrda orzular hayotiy haqiqatga aylandi.

Zamonaviy shaharsozlik me'morchiligi an'analari asosida qad rostlayotgan Ekoshaharda 300 gektar maydonda 80 ming aholi

evaziga chetdan olib kelishga hojat qolmadi. Ixtisoslashtirilgan xo'jaliklar, tajribali tomorqachilar tomonidan mahalliy iqlim sharoitiga mos eng noyob ko'chatlar yetkazib berilmoqda.

Ekoshahardagi ichki yo'llarni Farg'ona shahrini boshqa hududlar bilan tutashiruvchi halqa yo'lga bog'lash, jamoat transporti qatnovi uchun shohbeka barpo etish maqsadida amaliy sa'y-harakatlar boshlab yuborilgan. O'zbekiston Qahramoni, mashhur fermer Lolaxon Murotova nomidagi qishloq xo'jaligi sohasi mutaxassislarini tayyorlashga ixtisoslashtirilgan maktab bunyod etildi.

- Yangi uy qo'shaloq xursandchiliklar tuhfaga etdi, - deydi Marg'ilon shahridan ko'chib kelgan Muqaddam Tillaboyeva. - Ekoshahardagi xonadonimizda ikkinchi qizimiz Xadichabonu tug'ildi. Ayniqsa, bundan opasi Ominaxon

**"E'tibor va rag'bat tufayli viloyatda tadbirkorlik muhiti yildan-yilga yaxshilanib boryapti. Aytaylik, 2023-yili viloyatda 600 ta eksportchi korxonalar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, joriy yilda mingtaga yaqinlashdi. Ularning 350 tasi bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xorijga jo'natishga ixtisoslashtirilgan."**

yashashiga mo'ljallangan 7, 9, 16 va 25 qavatli uylarga hamohang tarzda ta'lim, tibbiyot, sport majmualari, bog' va xiyobon, hordiq maskanlari, savdo, xizmat ko'rsatish, servis shoxobchalarini qurish katta uyushqoqlik bilan olib borilyapti. Bunyodkorlik jarayonida qudratli texnikalar, 50 dan ortiq pudratli korxonalar hamda 2 ming nafardan ziyod quruvchilar mehnat qilayotir.

Hozirgi kunda birinchi bosqichda belgilangan ishlar yakuniga yetkazilib, 12 ming nafar kishiga yashash uchun eng qulay shart-sharoitlar muhayyo etildi.

Ekoshahar qurilishi loyihasi mamlakatimizda o'xshashi yo'q - noyob va mukammal yondashuv asosida ishlab chiqilgan bo'lib, bu borada ekologik toza, "yashil" iqtisodiyotga asoslangan innovatsion g'oyalari va texnologiyalardan foydalanishga e'tibor qaratilgan.

Shaharchadagi o'ziga xos me'moriy yechimga ega har bir uy energiya tejamkor. Yangi daha ob-havosini mo'tadillashtirish, doimiy obihayot bilan ta'minlash maqsadida umumiy uzunligi 11 kilometr bo'lgan kanal qurilishi yakuniga yetkazildi. Suv resurslaridan unumli foydalanish maqsadida ariqlar betonlashtirilib, "aqli" sug'orish tizimlari joriy etildi.

Hozir yangi shaharchada sun'iy ko'l va zamonaviy favvoralar qurilishi poyoniga yetkazildi. Farg'ona tumanining Damko'l qishlog'idan 14,2 kilometr toza ichimlik suvi, 7,5 kilometrlik yuqori kuchlanishga ega ko'lga elektr tarmoqlari tortildi. 11,2 kilometr yangi kanalizatsiya quvurlari ishga tushirildi.

Istiqbolli loyihalar dasturiga ko'ra, bu yerda yuzlab bolalar maydonchalari va o'yingohlar, 10 ta bog'cha va 6 ta maktab quriladi. 50 gektar maydonda kichik sanoat zonasining ishga tushirilishi va hisobiga 20 mingdan ziyod ish o'rnlari yaratish ko'zda tutilgan. Ayni chog'da 420 o'rinni 3 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, 990 o'rinni 2 ta umumta'lim maktabi, 250 qatnov o'rninga ega markaziy poliklinika qurilishi yakunlandi.

Ekoshaharda 70 gektar yerda "Yangi O'zbekiston" bog'i tashkil etilyapti. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida joriy yilning o'zida 20 xildan ortiq, 35 ming tup manzarali ko'chat ekildi. E'tiborlisi, endilikda bunday ko'chatlarni katta mablag'

juda ham xursand. Tinch, yam-yashil yo'laklar, so'lim xiyobonlar bo'ylab har kuni sayr qilish yanada maroqli.

## Dunyo bozorida xaridorgir mevalar

Viloyatda mevali bog'lar yildan-yilga ko'payib boryapti. Bugungi kunda viloyatda fermer va dehqon xo'jaliklari tasarrufida 51 333 gektar mevali bog'lar mavjud. Uning 4 858 gektari keyingi yillarda barpo etilgan intensiv bog'lardir.

Xususan, birgina o'tgan yilning o'zida viloyatda eski bog'larni yangilash hisobiga 852 gektar, yangi yerlarni o'zlashtirish orqali 1 ming gektardan ortiq mevali bog'lar barpo etildi.

Olib borilgan tahlillarga ko'ra, viloyatdagi mavjud bog'larda shu yilning may-iyun oylarida 200 ming tonnaga yaqin turli meva-chevalar pishdi. Shundan kelib chiqib, ushbu mahsulotlarning 47,4 ming tonnasini eksportga hamda 143,5 ming tonnasini ichki bozorga jo'natirish rejalashtirildi.

Bunda viloyatdagi 191 ming tonna sig'imga ega 312 ta muzlatkichi omborxonalar nihoyatda qo'l kelayotir. Omborxonalarda saqlanayotgan mahsulotlarni onlayn monitoring qilish imkonini beradigan yangi platforma yaratilgan bo'lib, talab va ehtiyojdan kelib chiqqan holda zaxirada har oyda o'rtacha 10 ming tonna mevasabzavotlar saqlanmoqda.

Zamonaviy yondashuv asosida viloyat O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi qoshida eksportga ko'maklashuvchi shtab tuzildi, - deydi mazkur boshqarma boshlig'i o'rinbosari Eldor Tursunqulov. - Shtabda viloyatdagi barcha mutasaddi idoralar mutaxassislari jamlangan, hujjatlarni rasmiylashtirish, sifat sertifikatini, jahon bozorida yangi me'yor va talablar bo'yicha shu yerning o'zida tushuntirish ishlari olib boriladi.

Asosiysi, ayni jarayonda elektron platforma tashkil etildi va barcha jarayonni masofadan turib, onlayn

Farg'ona viloyatida so'nggi bir yil mobaynida barcha jabhada har jihatdan quvonishga arziydigan yutuqlar qo'lga kiritildi. Albatta, bu yangilanishlar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligidagi xalq farovonligini yuksaltirish va mamlakatimiz istiqbolini yo'lga olib borilayotgan ezigu tashabbus va hayotbaxsh ishlohtlarning amaliy samarasidir. Muhimi, tizimli ishlar natijasida bunday yutuqlar ko'lami tobora yuksalib borayotir.

Botir MADIYOROV ("Xalq so'zi").



# ERTAKLAR — YAXSHILIKKA ETAKLAR




Kichikintoylarning olamni badiiy tanishi, dunyoqarashi va insoniylik jihatlari shakllantirishda ertaklar muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaga uyqudan oldin ertak aytib berish an'anasi ko'p millatlarda bo'lgani kabi xalqimiz orasida ham qadimdan shakllanib kelgan. Xalq og'zaki ijodining boshqa janrlariga qaraganda ertak millatning milliy koloritini ko'proq ochib beradi. Ertaklar yordamida bolalar ma'nau yetuk shaxs bo'lib yetishishiga dastlabki odimlar tashlanadi, shu tariqa kichikintoylar tinglashni, o'z fikrini bayon etishni o'rganadi.

## Mushohada

Shunday ekan, ertaklar — millat tarbiyasida muhim bo'lgan "aqli ishlama"lar qatorida ekanini inkor etib bo'lmaydi. Bu "aqli ishlama"lar millat va xalq bilan bog'liq afsona, qadriyat, urf-odatlaridan so'z. Ular nafaqat bizning ongimizga o'rnatib qolgan tarix, balki ma'lum bir maqsad yo'lidagi "loyiha" hisoblanadi.

Bolalar o'zlarini ertak qahramonlari o'rniga qo'yib, ularning hissiyotlari hamda o'y-qarashlari bilan ma'lum muddat "yashaydi". "Men u (qahramon)ning o'rnida bo'lsam qanday yo'l tutardim?", "Ertak qahramoni nima uchun bu holga tushdi?" degan savollarni o'ziga berib ko'radi. Bu bilan esa bolalarda o'zgarimchan tushunishga, dardiga malham bo'lib, beg'araz yordam berishga harakat qilish kabi insoniylik hislari sayqallanib boradi. Ertaklar orqali bolalarda orzu qilish, voqealar rivojida asosiy vaziyatlarni belgilash, obrazlardagi o'ziga xoslikni anglash, hodisalarni umumlashtirish, qisqacha aytganda, fikrlash ko'nikmalari hosil bo'ladi.

Ertaklarning boshqa adabiy janrlardan ustunligi — oddiyligida. Ulardagi voqealar



rivoji "nima uchun mumkin?" va "nima uchun mumkin emas?" degan savolga aniq javob topa olish imkonini berib beradi. Yana bir jihati, bolalarga mo'ljallangan adabiy mahsulot kichik kitobxonning diqqatini tortishi, qiziqirishi kerak. Shunday ekan, yosh qalblarga o'rnatilgan, ta'sirlantiradi. Shuningdek, ertaklar bolalarda tabiatga, hayvonot olamiga mehr uyg'otadi. Turli hayvonlarning yashash tarzi, o'ziga xos olami bilan tanishtiradi. Tabiat hodisalarini, yil fasllari haqida ma'lumotlar beradi.

Qolaversa, bolalar ertak tinglash yordamida orzu qilishni o'rganadi, voqealar so'ngidagi yaxshilikning g'alabasi, haqiqat qaror topadigan xayrli yakuni esa ularni yaxshilik, ezgulik sari intilishga undaydi. Ya'ni kichikintoylarning tashqi muhit, hayotning

qarama-qarshi jihatlari bilan tanishuvi hamda uni anglashining asosini ham ertaklar tashkil etadi. Bolalar uchun ertak tinglash, bu — psixolog qabulida bo'lish bilan teng ahamiyatga ega.

Ammo, afsuski, bugungi kuni otanonalari aksariyat hollarda farzandlariga ertak aytib berish uchun vaqt ajratmaydi. Texnologiya ildamlab ketayotgan davrda bolalar boshlang'ich hayotiy ko'nikmalarni asosan televizor, kompyuter, internet orqali o'lmoqda, desak, yanglishmaymiz. Albatta, texnologiyalardan unumli foydalanish, aqli charxlovchi ko'rsatuvlar, filmlarni ko'rish, ular bilan ma'lumot olishni qoralashdan yiroq. Lekin shuni ham inobatga olish kerakki, texnik uzatuvlarda ma'lumotlar ko'lamini keng bo'lgani bilan ular bolalarga his-tuyg'u ulasha olmaydi. Namoyishlar avtomatik tarzda ko'rsatilar ekan, ularning bola ongiga ta'siri hamda so'ngida nima fikr qoldirayotgani nazoratga olinmaydi. Ertaklarda esa, aksincha, ular hayotni anglatuvchi pedagogik asosga qurilgan bo'lib, tarbiyalaydi, xulosa chiqarishga o'rgatadi, yaxshilik sari undaydi, hatto turli tarbiyaviy nuqsonlarni yo'qotishga yordam beradi.

Ertaklarning o'ziga jihatlardan yana biri uning boshqa shaxs (ota-ona, buvi-bobo kabi) tomonidan so'zlab berilishining muhimligida. Bu haqda soha mutaxassislaridan biri shunday deydi: "... qo'shiq kuylovchini, drama esa aktyorni talab qilganidek, ertak "ertak aytuvchi"ni talab etadi. Qo'shiq kuylanganida, drama esa sahnada ijro qilinganida jonlanganidek, ertak ham faqat og'zaki aytilganidagina jonlanadi. Ammo qo'shiqni kishi o'zi uchun ham kuylaydi, ertakni esa boshqalar uchun hikoya qilib berishi lozim, u tinglovchilarni talab qiladi..." Shunday ekan, ertak rivoyat xarakteriga ega bo'lgani uchun hikoya qilishni, so'zlab berishni talab etadi.

Bola ongiga eng yaxshi ta'sir qiluvchi ertaklar xayrli yakunga ega bo'lganlaridir. Bunday ertaklar yordamida kichik tinglovchida hayotdagi barcha musibat yakunida yaxshilik, yengillik bo'lishiga umid uyg'onadi, ularni har qanday vaziyatda og'ir va muvofiq bo'lishga o'rgatadi. Ular bolalarda qadriyatlarining e'tirof etilishiga ham zamin yaratadi. Haqiqat oxir-oqibat qaror topishiga, yaxshilikning yomonlik ustidan doim g'alaba qozonishiga ishonchini oshiradi. Bosh qahramonning boshiga ma'lum muddat kulfat tushishi hamda ushbu qiyinchiliklarni matonat bilan yengib, oxir-oqibat baxtli bo'lishi bolalarda kelajakka ishonch, harakat va izlanishlar besamar ketmasligi, adolat har qanday vaziyatda ham qaror topishiga umid uyg'otadi.

Bolalar ertaklar bilan tanishar ekan, millionlardan tashkil topgan muallif — xalq bilan tanishadi, uning xayoli va dardini qisman bo'lsa-da, his qiladi. Shunday ekan, bolalarning ma'naviy kamolotida, psixologik o'sishida ertaklarning o'z o'rnini borligini unutmastik, otanonalar ertak o'qib berishni muhim vazifalardan biri sifatida qarashi maqsadga muvofiq.

**Muhayyo ISMOILOVA,**  
**Respublika Ma'naviyat va ma'rifat**  
**markazi Toshkent shahar bo'limi**  
**rahbari.**

# MIRAKI TURIZM MARKAZLARIDAN BIRIGA AYLANADI



Shahrisabz tumanining Miraki qo'rg'onchasiga kelgan kishi bu yerning tabiatiga mahliyo bo'ladi. Hisor tog' tizmasining purviqor qoyalari bilan o'ralgan bu go'shaning tepa qismida "Hisorak" suv ombori joylashgan. Mahallaning bir yonida shu suv omboridan boshlanajak Oqdaryo hayqirib oqsa, bir yonda sokinlikni xush ko'radigan Qoradaryo mavjlanadi.

## Intilish

Shu bois Miraki doim sayyohlarni o'ziga maftun etib kelgan. Ayniqsa, jazirama yoz oylarida bu yer yanada gavjum bo'ladi. Ammo hududda turizm xizmatlari tizimli yo'lga qo'yilmagani ko'pincha pand berib kelardi.

Bugungi kunda esa hududda turizm infratuzilmasini shakllantirish hamda sayyohlik jozibasini oshirish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, so'nggi ikki yilda mahalladagi ichki yo'llar ta'mirlanib, aksariyat qismiga asfalt qoplama yotqizildi. Avval qattiq rejimda qo'riqlanadigan "Hisorak" suv ombori turistlar uchun ochilib, u yerda 2 ta 20 o'rinni katerda sayohat xizmati tashkil etildi.

— Bundan tashqari, davlatimiz



rahbarining 2023-yil 28-noyabrda tegishli qarori bilan tumanda Shahrisabz turistik markazi faoliyati yo'lga qo'yildi, — deydi Qashqadaryo viloyati turizm infratuzilmasini rivojlantirish va boshqarish departamenti rahbari

Muhammadxon Abdulxairov. — Shu markazda 240 gektar yer maydonida xalqaro ekspertlarni jalb qilib, reja ishlab chiqilgan. Uning doirasida 117 million dollarlik 48 ta mehmonxona, mehmon uylari va aholi dam olish maskanlari qurilishi rejalashtirilgan. Natijada 1,7 mingta ish o'rni yaratilishi mo'ljallangan. Birinchi bosqichda 22 gektarga teng maydonlar auktsion savdolariga chiqarilgan. Ushbu yer maydonlarini tadbirkorlar Prezident qarori bilan belgilangan imtiyozlar asosida 10 yil muddatga to'lash sharti bilan o'lmoqda. Ayni chog'da 60 million dollarlik 1100 o'rinni ikkita mehmonxona, uchta xostel, ikkita restoran va savdo-ko'ngilochar kompleksi qurilishi boshlandi. Yana 15 million dollarlik 10 ta qurilish loyihasi boshlanish arafasida.

Ta'kidlash joizki, 3-iyun kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida hududlarda turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini ko'paytirish chora-tadbirlari muhokamasi bo'yicha

videoselektor yig'ilishida Shahrisabz tumanida turizm klasteri tashkil qilish hamda Hisorak — G'elon va Hisorak — Sarchashma yo'lini kengaytirib ta'mirlash, Chiroqchi — Sho'rquduq avtomobil yo'lini ta'mirlash orqali Samarqanddan Shahrisabzga qatnov vaqtini qisqartirish bo'yicha ham topshiriqlar berilgan edi. Ayni paytda bu borada ham ishlar boshlab yuborilgan.

Shuningdek, rossiyalik investorlar tomonidan Shahrisabz tumanining G'elon qishlog'ida "Tog' chang'i kompleksi" barpo etilmoqda. Bu Miraki, G'elon hamda Sarchashma qishloqlarining o'zaro uzviyligida, yaxlit sayyohlik majmuasiga aylanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiysi, Mirakida amalga oshirilayotgan loyihalar hududning doimo sayyohlar bilan gavjum bo'lishi, pirovardida iqtisodiy salohiyati yuksalib, minglab ish o'rinlari yaratilishiga zamin hozirlaydi.

**Jahongir BOYMURODOV**  
("Xalq so'zi").

## Ezgulik

# Hech kim jamiyatdan ayro emas

Yurtimizda aholining imkoniyati cheklangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlarni to'laqonli qamrab olish, ularga ko'rsatilayotgan ko'mak sifatini yangi bosqichga ko'tarish masalasi islohotlar negizini tashkil etmoqda.

Jumladan, ko'rish imkoniyati cheklanganlar uchun har jabhada sharoit yaratilib, ular ta'lim, ijtimoiy sohalarda qo'llab-quvvatlab, kelinaypti. Yurtimizda yuzlab maxsus ko'zi ojizlar kutubxonasi faoliyat ko'rsatayotgani esa ularning bilim olish huquqidan to'la foydalanishiga imkon bermoqda.

Mazkur yo'nalishda Surxondaryo viloyatida ham ko'lamlil ishlar olib borilmoqda.

Aytish joizki, davlatimiz rahbari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida ko'zi ojizlar maxsus kutubxonasining yangi binosini qurish loyihasi bilan tanishib, uni ma'qullagan edi. Shundan so'ng ushbu xayrli ishni amalga oshirishga tezda kirishildi. Kutubxona uchun yangi zamonaviy bino qurish bo'yicha loyiha hujjatlari ishlab chiqildi. Qisqa vaqtda 5,2 mlrd. so'mlik loyiha doirasida ko'zi ojizlar uchun barcha qulaylikka ega kutubxona binosi qurilib, foydalanishga topshirildi.

E'tiborlisi, kutubxonaga mahalliy byudjetdan 200 mln. so'm ajratilib,

Brayl alifbosidagi hamda audio kitoblar jamlamasi taqdim etildi. Har bir xona zamonaviy kompyuter vositalari bilan ta'minlandi. Ko'zi ojizlar uchun maxsus dasturlar asosida ishlovchi texnik jihozlar o'rnatildi.

— Termiz shahridagi ushbu maxsus kutubxonaning faoliyat boshlaganiga 40 yil bo'lgan bo'lsa, shu yillar davomida bir necha joyga ko'chdik, — deydi viloyat ko'zi ojizlar maxsus kutubxonasi direktori Husan Islomqulov. — Sharoitning yo'qligi esa nafaqat ko'rish qobiliyati cheklanganlarga, balki xodimlarga ham noqulaylik tug'dirib kelayotgandi. Bugun kutubxonamizga kelish imkon bo'lmagan shaxslar uchun uya kitob etib berish, ovozli o'qishlar xizmati yo'lga qo'yilgan. Respublikada birinchi bo'lib Brayl alifbosidagi bo'rtma matnli adabiyotlarni chop etish minitipografiya, audio formatdagi adabiyotlar nashr qiluvchi ovoz yozish studiyasi tashkil etildi. Kutubxonamizning 13 ta hududda filiallari mavjud. Ularning har birida

fan, kompyuter to'garaklari ochildi. Dilfuza Chorshanbiyeva bu yorug' olamni Brayl yozuvidagi kitoblar orqali anglaydi. Hayotda izlaganlarining barchasini kutubxonadan topdi.

— Kutubxonaga uzoq yillardan beri qatnayman. Ko'p adabiyotlarni qidirib sarson bo'lardim, — deydi Termiz davlat universiteti magistri Dilfuza Chorshanbiyeva. — Hozir istalgan kitobni qiyinam topish mumkin — mualliflar, kitoblar, janrlarga qarab tanlash imkoniyati bor.

Ziyo maskanida sog'lom fuqarolarga ham kitob mutolaa qilishni, to'garaklarga qatnashi uchun imkoniyatlar yaratilgan. Ijodiy uyushmalar bilan hamkorlikda "Eng yaxshi mutaxassis", "Eng faol kitobxon", "Brayl yozuvida tez yozish va fodal o'qish", "Eng yaxshi kitobxon oila" tanlovlari o'tkazib kelinmoqda. E'tiborlisi, yaqinda ushbu ziyo maskani Madaniyat vazirligi tomonidan uyushtirilgan "Yangi O'zbekiston yulduzlari" milliy mukofotining "Aholiga xizmat qilgan yilning eng yaxshi kutubxonasi" nominatsiyasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi.

**Farhod ESONOVI**  
("Xalq so'zi").

# X Toshkent xalqaro zamonaviy san'at biyennalesi o'tkaziladi

Joriy yil poytaxtimizda "San'at va dunyo" mavzuida X Toshkent xalqaro zamonaviy san'at biyennalesi o'tkaziladi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Badiiy akademiyasida matbuot anjumani tashkil etildi.

## Anjuman

Tadbirida ushbu san'at va madaniyat bayrami keng jamoatchilik va dunyo mamlakatlari zamonaviy ijodiy salohiyatimiz, yangi yo'nalishlarimiz bilan tanishtirish, tasviriy san'at sohasida madaniy almashinuv, ijodiy mulohazalarini mustahkamlash, tizimdagi dolzarb muammolarni muhokama qilishda ahamiyati beqiyosligi ta'kidlandi.

— Ushbu madaniy tadbirga jiddiy tayyorgarlik ko'ryapmiz, — deydi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti dotsenti Kamola Nishonova. — Unda chet ellik ijodkorlarning ham ishtirok etishi kutilmoqda. Hozirda 30 dan ortiq talabgorlardan arizalar kelib tushgan. Albatta, arizalar qabul qilishda davom etmoqdamiz. Ulardan har birini ko'zdan kechirib, saralab olamiz. Ko'rgazmadan asosiy maqsad yosh va iste'dodli ijodkorlarni topib, ularga o'zini namoyish etishiga sharoit yaratish va O'zbekiston hamda chet ellik ijodkorlarni bir yerda jamlab, tajriba almashishiga zamin yaratishdir.

Toshkent xalqaro zamonaviy biyennalesi 2001-yildan buyon har ikki yilda o'tkazib kelinmoqda. Unda "San'at va dunyo" mavzuida zamonaviy san'atning barcha sohasi — tasviriy san'at, grafika, foto, installatsiya, pop-art, raqamli san'at va boshqa yo'nalishlarda ijodkorlar o'z asarlarini taqdim etishi mumkin.

**Elyor HAYDAROV**  
("Xalq so'zi").

# SUVGA SHO'NG'ISHDAN OLDIN NIMALARGA E'TIBOR QARATISH AFZAL?

Yoz faslida kunlar isigan sayin suv havzalarida cho'milishga bo'lgan ehtiyoj oshadi. Bunday paytlarda ko'pchilik, ayniqsa, yoshlar suvda suzishga talpinadi. Ammo ochiq suv havzalarida cho'kish bilan bog'liq muhim holatlar ham uchrab turadi.

## Tavsiya

Xo'sh, bunday salbiy oqibatlarining oldini olish uchun nimalarga e'tiborni kuchaytirish kerak? Avvalo, shuni aytish joizki, suvda cho'milishdan oldin plyajni tayyorlash zarur bo'ladi. Xususan, plyaj akvatoriyasi tubini tekshirish, guruh cho'milishi uchun ajratilgan uchastka chegarasining qirg'og'i chetlarini rangli qirg'oq bayroqchalari yoki yaxlit to'siq (fal) bilan belgilash lozim. Cho'milish uchun

ajratilgan uchastka akvatoriyasi chegarasining butun perimetrini ishora qoziqlari, suvda qalqib turuvchi to'siqlar bilan belgilash ham samaralidir.

Shuningdek, taxtachalarga qutqaruv vositalarini ilib qo'yish, bolalarning har bir guruhiga xavfsizlik choralarini bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish, qutqaruvchi plyaj akvatoriyasi tashqarisiga qayiqdagi chiqishi va undan 2-3 metr masofada turishi lozim. Cho'milish paytida har 10 kishi hisobiga bir nafar qutqaruvchi suvda cho'milayotgan bolalarning yonida turishi kerak.

Bolalar yoki birinchi marotaba suvga tushgan katta yoshdagilarni suzishga o'rgatish joyi 60 — 90 santimetrgacha chuqurlikda bo'lishi kerak. Bunday chuqurlikda odam suvdan cho'chimaydi, chunki oyog'i tayanch nuqtaga ega bo'ladi.

Ochiq suv havzalarida suzishga o'rganishda, albatta, suvning chuqurligi bilan birga, oqim tezligini ham e'tiborga olish lozim. Iloji boricha, faqat qutqaruv xizmati bo'lgan joylardagina cho'milishga ruxsat etiladi. Shunda baxtsiz hodisa yuz bersa, ya'ni biror-bir odam cho'kguday bo'lsa, qutqaruv xizmati tezda yordamga keladi. Cho'milish joyi cheklangan, ko'pirib oqayotgan suvga sho'ng'ish mumkin emas.

Cho'kayotgan odamni suvdan olib chiqish ham katta mahorat talab etadi. Bunda bir necha qutqarish usullari mavjud. Ulardan biri — cho'kayotgan kishiga orqa tomondan suzib yaqinlashish, sochi va qo'lting'idan ushlab, yuzini tepaga qaratib, qutqaruvchini ushlab olishga yo'l qo'ymagan holda qirg'oqqa qarab suzish kerak.

Unutmang, suvda suzish qoidalarini bilish yoz faslining yanada maroqli va foydali o'tishini ta'minlaydi.

**Ilhom QO'ZIYEV,**  
**Chilonzor tumani Favqulodda vaziyatlar**  
**bo'limi profilaktika va nazorati bo'linmasi**  
**inspektori, katta leytenant.**

# Shu yilning 21 — 23-noyabr kunlari O'zbekistonda Toshkent xalqaro sayyohlik yarmarkasi bo'lib o'tadi.

**Xalq so'zi**  
**Narodnoe slovo**

**MUASSISLAR:**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Senati Kengashi

**Bosh muharrir O'tkir RAHMAT**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-742. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

**TELEFONLAR:**  
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir N. Ostonov.  
Musahih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 22.28 Topshirildi — 00.40

1 2 3 4 5 6